

O‘ZBEK VA FRANSUZ TILLARIDA DORIVOR O‘SIMLIKLARNING NOMLANISHI

Jumashova Sayyora Shonazarovna,

University of business and Science Tabiiy fanlar kafedrası

Lotin tili va tibbiy terminologiasi fani o‘qituvchisi,

BuxDU “Fakultetlararo chet tillar” kafedrası

Mustaqil tadqiqodchisi

G-mail: sayyorajumashova155@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada dorivor o‘simliklarning o‘zbek va fransuz tillarida nomlanishi, ularning o‘xshash va farqli tomonlari haqida bayon etilgan. Shuningdek, o‘zbek va fransuz tillaridagi dorivor o‘simlik nomlarining semantik tuzilishi hamda ularni tarjima qilish strategiyalari ham o‘rin olgan. fitonimlarning nafaqat nominativ birlik, balki xalqning madaniyati, tarixiy tajribasi va milliy tafakkurini aks ettiruvchi murakkab lingvistik hodisa ekanligini ko‘rsatadi. Fitonimlar o‘simliklarni nomlash vazifasini bajarish bilan birga, ular haqida biologik, ekologik, farmakologik va madaniy axborotni ham o‘zida mujassamlashtiradi. Shu sababli fitonimlar semantik maydoni keng bo‘lgan leksik birliklar hisoblanadi.

Kalit so‘zlar: Leksik- semantik, fitonim, dorivor o‘simliklar, shifobaxsh, xalq tabobati, metaforik ma‘no, tafakkur.

Аннотация. В данной статье описывается система наименования лекарственных растений на узбекском и французском языках, их сходства и различия. Также рассматривается семантическая структура названий лекарственных растений на узбекском и французском языках, а также стратегии их перевода. Показано, что фитонимы являются не только номинативными единицами, но и сложным лингвистическим феноменом, отражающим культуру, исторический опыт и национальное мышление народа. Фитонимы, помимо функции наименования растений, также воплощают биологическую, экологическую, фармакологическую и культурную информацию о них. Следовательно, фитонимы являются лексическими единицами с широким семантическим полем.

Ключевые слова: лексико-семантический, фитоним, лекарственные растения, лекарственные, народная медицина, метафорическое значение, мышление.

Abstract. This article examines the naming of medicinal plants in the Uzbek and French languages, highlighting their similarities and differences. It also discusses the semantic structure of medicinal plant names in Uzbek and French, as well as the strategies used in their translation. The study demonstrates that phytonyms are not only nominative units but also complex linguistic phenomena that reflect a nation's culture, historical experience, and national worldview. In addition to their function of naming plants, phytonyms embody biological, ecological, pharmacological, and cultural information about them. Therefore, phytonyms are considered lexical units with a broad semantic field.

Keywords: lexical-semantic, phytonym, medicinal plants, healing properties, traditional medicine, metaphorical meaning, cognition.

Kirish. Fransuz tilidagi fitonimlar tilshunoslik, madaniyatshunoslik va xalq bilimlarini o‘rganishda muhim manbadir. Ularning leksik-semantik xususiyatlari orqali o‘simliklar haqidagi bilimlar, e‘tiqodlar va madaniy qadriyatlar yuzaga chiqadi. Fitonimlarning kelib chiqishi, sinonimiyalari, semantik guruhlarini, madaniy kontekstdagi o‘rni, frazeologik ifodalarda qo‘llanilishi keng qamrovli tahlilni talab qiladi. Shu jihatdan, fransuz fitonimlari til va madaniyat o‘zaro ta‘sirining yorqin namunasi hisoblanadi. Fransuz fitonimlarining ilmiy tasnifi asosan lotincha binomial nomenklaturaga asoslangan. Har bir

o‘simlik ‘Rod’ va ‘Tur’ ko‘rinishida nomlanadi: masalan, ‘Rosmarinus officinalis’. Ilmiy tasnif fransuz tilidagi xalqona nomlardan farq qiladi. Shu bilan birga, ko‘plab ilmiy nomlar fransuz tiliga transliteratsiya yoki adaptatsiya qilingan holda kirib kelgan. Bu holat, ayniqsa, dorivor o‘simliklar bilan bog‘liq adabiyotlarda yaqqol ko‘zga tashlanadi.

Adabiyotlarning tahlili. O‘zbek va fransuz tillarida dorivor o‘simliklarning nomlanishi ma‘lum nominatsion tamoyillarga asoslanadi. Ular quyidagi omillar bilan belgilanadi:

a) *Tashqi ko‘rinish asosida* (o‘simlikning rangi, shakli yoki tashqi belgilari nomlanishga asos bo‘ladi) nomlanish. O‘zbek tilida- Qizilmiya, Oq andiz, Sariqgul. Fransuz tilid a- *Pissenlit* (momaqaymoq), *Bleuet* (ko‘k rangli gul), *Millepertuis* (sariq gullari bilan mashhur dorivor o‘simlik). Tilshunos V.G. Gakning fikricha[1] “Nomlash jarayonida obyektning inson ongida eng muhim deb hisoblangan belgisi asos qilib olinadi”

b) *Dorivor xususiyatiga ko‘ra nomlanish.* Ko‘plab fitonimlar o‘simlikning davolash vazifasiga bog‘liq ravishda shakllangan. Isiriq – yomon kuchlardan himoya qiluvchi va shifobaxsh o‘simlik; marmarak (*sauge*) – yallig‘lanishga qarshi vosita; valeriana (*valériane*) – tinchlantiruvchi o‘simlik.

c) *Fitonimlarda metaforik ma‘no.* O‘zbek tilida - Rayhon – go‘zallik va poklik ramzi.

Lola – yoshlik va muhabbat timsoli. Fransuz tilida - Lavande (lavanda) – xotirjamlik va poklik ramzi. Rose (atirgul) – sevgi va go‘zallik timsoli. Lavandadan parfyumeriyada foydalanish. “Romarinning” diniy va oilaviy marosimlarda ishlatilishi. Tisane (dorivor giyohli choylar) madaniyati. Lavandadan parfyumeriyada foydalanish. Romarinning diniy va oilaviy marosimlarda ishlatilishi. Tisane (dorivor giyohli choylar) madaniyati. A. Potebnya "Xalq tafakkuri o‘simliklarni faqat biologik obyekt sifatida emas, balki ramziy obraz sifatida ham qabul qiladi"[2] deb yozgan o‘z tadqiqotida. Dorivor o‘simliklarga oid fitonimlar o‘zbek va fransuz tillarida umumiy nominativ vazifani bajarsa-da, ularning shakllanishi va semantik taraqqiyoti har bir xalqning tarixiy, madaniy va ilmiy rivojlanish yo‘li bilan belgilanadi. O‘zbek tilidagi fitonimlar xalqona bilimlar va amaliy tajribaga tayansa, fransuz tilidagi fitonimlar ilmiy-botanik tasnif bilan chambarchas bog‘liqdir. Ishimizda tahlil shuni ko‘rsatadiki, o‘zbek fitonimlarida xalq tabobati, qadimiy turmush tarzi va etnografik tajriba kuchli aks etadi. Fransuz fitonimlarida esa botanika fanining rivoji, lotincha nomenklatura va farmatsevtika an‘analari ustunlik qiladi. Bir o‘simlik uchun bir nechta nom mavjud bo‘lishi mumkin. Bu holat tilning mintaqaviy, tarixiy yoki madaniy xususiyatlari bilan bog‘liq. Masalan, ‘Menthe verte’, ‘Menthe douce’, ‘Menthe sauvage’ singari nomlar turli mintaqalarda ishlatiladi, lekin asosan yalpozga ishora qiladi. Ayrim hollarda ilmiy nom va xalqona nomlar bir-biridan keskin farq qiladi: ilmiy til — ‘Rosmarinus officinalis’, xalq tili — Romarin. Sinonim fitonimlar ba’zida ularning ishlatilish konteksti bilan ham belgilanadi. Xalq tabobatida bir nom ishlatilsa, farmakopeyada boshqasi bo‘lishi mumkin.

Fransiyaning turli mintaqalarida o'simliklar turlicha nomlanadi. Bu holat asosan dialektlar, lokal an'analar va o'simliklarning qo'llanish sohasiga bog'liq. Masalan, Janubiy Fransiyada 'Thym serpolet' — tog' kekigi sifatida ma'lum bo'lsa, shimolda bu o'simlik boshqa nom bilan tanilgan bo'lishi mumkin. Dialektologik tafovutlar o'simliklar haqidagi xalqona bilimlar va ular atrofidagi tasavvurlarni o'rganishda muhim manba hisoblanadi. Bu fitonimlar ko'pincha og'zaki nutqda saqlanib qolgan bo'lib, mahalliy shevalar va folklor bilan chambarchas bog'liq. Fitonimlar fransuz tilida ko'plab iboralarda ishlatiladi. Bu iboralar bevosita yoki bilvosita ma'noga ega bo'lib, til boyligini ko'rsatadi. Masalan, 'Avoir la main verte' — bog'dorchilikka moyillik, 'Être haut comme trois pommes' — qisqa bo'yli bo'lish. Ba'zida o'simlik nomlari kuchli metaforik yuklamaga ega bo'lib, inson xarakterini, holatini yoki jamiyatdagi mavqeini ifodalaydi. Frazologik birliklar tilning obrazli qatlamiga oid bo'lib, xalq tafakkurining mahsuli sifatida o'rganiladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqotda o'zbek va fransuz tillaridagi dorivor o'simlik nomlari qiyosiy-lingvistik hamda lingvomadaniy yondashuv asosida o'rganildi. Tadqiqotning nazariy va amaliy materiallarini o'zbek va fransuz tillariga oid izohli lug'atlar, fitonimlar bo'yicha ilmiy adabiyotlar, botanika va farmakologiyaga doir manbalar, shuningdek, xalq tabobatiga oid ma'lumotlar tashkil etdi.

Tadqiqot jarayonida qiyosiy-tahlil, tavsifiy, semantik va etimologik metodlardan foydalanildi. Qiyosiy-tahlil metodi yordamida o'zbek va fransuz tillaridagi dorivor o'simlik nomlarining o'xshash va farqli jihatlari aniqlandi. Tavsifiy metod asosida fitonimlarning leksik-semantik xususiyatlari, nomlanish motivlari hamda lingvistik tuzilishi izohlandi. Semantik tahlil orqali fitonimlarning ma'no tarkibi, metaforik va ramziy xususiyatlari o'rganildi. Etimologik metod yordamida ayrim fitonimlarning kelib chiqishi va tarixiy shakllanish jarayoni tahlil qilindi.

Tahlillar va natijalar. O'zbek va fransuz tillaridagi dorivor o'simlik nomlari qiyosiy tahlil qilinganda, ularning nomlanish tamoyillari, semantik tuzilishi va lingvomadaniy xususiyatlarida ham umumiyliklar, ham milliy o'ziga xos jihatlari mavjudligi kuzatiladi.

Fitonimlarning o'xshash tomonlari:

Birinchiidan, har ikkala tilda ham dorivor o'simliklar nomlari o'simlikning tashqi ko'rinishi, rangi, hidi, ta'mi yoki shifobaxsh xususiyatlariga asoslanib shakllangan. Masalan, o'zbek tilidagi **yalpiz**, **rayhon**, **isiriq**, **andiz** kabi fitonimlar xalq tabobatidagi vazifasi bilan bog'liq bo'lsa, fransuz tilidagi **camomille** (moychechak), **menthe** (yalpiz), **thym** (timyan), **sauge** (marmarak) nomlari ham dorivorlik xususiyatlari bilan mashhurdir.

Ikkinchiidan, har ikkala xalqda ham ayrim o'simliklar xalq tabobati bilan chambarchas bog'langan. Shuning uchun ularning nomlari nafaqat biologik obyekt sifatida, balki shifo manbai sifatida ham tilga kirgan. "O'simlik nomlari xalqning tabiat haqidagi bilimlari va ko'p asrlik tajribasining til tizimidagi ifodasidir"[3]

Uchinchiidan, fitonimlar har ikki tilda ham xalq og'zaki ijodi va madaniy ramzlar tizimida faol qo'llanadi. Masalan, o'zbek folklorida rayhon poklik va go'zallik timsoli

bo'lsa, fransuz madaniyatida lavanda (lavande) osoyishtalik va poklik ramzi sifatida talqin qilinadi.

Fitonimlarning farqli tomonlari shundaki, o'zbek va fransuz fitonimlari o'rtasidagi asosiy farqlar ularning kelib chiqishi va nomlanish motivlarida namoyon bo'ladi. O'zbek tilidagi ko'pgina dorivor o'simlik nomlari xalqona kuzatishlar va kundalik tajriba asosida shakllangan. Ularning aksariyati turkiy qatlamga mansub bo'lib, o'simlikning tashqi belgisi yoki amaliy foydasini ifodalaydi. Masalan, **qizilmiya**, **shuvoq**, **bo'znoch**, **chakanda**, **isiriq** kabi nomlar xalq orasida yuzaga kelgan. Fransuz tilidagi fitonimlarning katta qismi esa lotin va yunon tillaridan kirib kelgan ilmiy terminologiya bilan bog'liq. Bu holat Yevropa botanika fanining rivojlanishi bilan izohlanadi. Masalan, **valériane** (valeriana), **romarin** (rozmarin), **eucalyptus** (evkalipt) kabi nomlar lotin yoki yunon manbalariga ega. Fransuz tilshunosi J. Pruvost" Les noms des plantes médicinales en français conservent souvent leur héritage latin, reflet de la tradition scientifique européenne." deb yozadi "Fransuz tilidagi dorivor o'simlik nomlari ko'pincha lotin merosini saqlab qoladi, bu esa Yevropa ilmiy an'alarining aksidir"[4] deb o'z tadqiqotida ta'kidlaydi. Yana bir farq shundaki, o'zbek tilida fitonimlar ko'proq xalq tabobati va etnografik tajribaga bog'liq bo'lsa, fransuz tilida ilmiy botanika tasnifi kuchliroq ta'sir ko'rsatgan. Fitonimlar milliy madaniyat va dunyoqarashning muhim ko'rsatkichlaridan biridir. O'zbek xalqining tabiatga yaqin turmush tarzi tufayli dorivor o'simliklar kundalik hayot, marosim va xalq tabobatida keng qo'llangan. Shu sababli ko'plab fitonimlar milliy madaniyatning tarkibiy qismiga aylangan. E. Begmatovning fikricha" O'simlik nomlari xalqning etnik xotirasi, turmush tarzi va madaniy tajribasi bilan uzviy bog'liq bo'lgan nominativ birliklardir"[5] Fransuz madaniyatida esa dorivor o'simliklar ko'proq farmatsevtika, gastronomiya va aromaterapiya bilan bog'lanadi. Shu sababli ayrim fitonimlarning semantik maydoni ham o'zbek tilidagiga nisbatan kengroq yoki torroq bo'lishi mumkin. Qiyosiy tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, o'zbek va fransuz tillaridagi dorivor o'simlik fitonimlari umumiy semantik asosga ega bo'lib, ular o'simliklarning tabiiy xususiyatlari va shifobaxsh belgilarini ifodalaydi. Biroq o'zbek tilidagi fitonimlarda xalqona tajriba, etnografik qarashlar va milliy dunyoqarash ustun bo'lsa, fransuz tilidagi fitonimlarda lotincha ilmiy an'alar va botanika tasnifi kuchliroq namoyon bo'ladi. Shu jihatdan fitonimlar ikki xalqning tabiatni idrok etish usuli, madaniy qadriyatlarini va tarixiy tajribasini aks ettiruvchi muhim lingvomadaniy birliklar hisoblanadi.

Xulosa. Har ikkala tilda ham fitonimlarning asosiy semantik yadrosini o'simlikning tashqi ko'rinishi, dorivor xususiyati, o'sish muhiti va foydalanish maqsadi bilan bog'liq ma'nolar tashkil etadi. Biroq o'zbek tilidagi fitonimlarda xalq tabobati, etnografik tajriba va kundalik turmush bilan bog'liq semantik belgilar ustun bo'lsa, fransuz tilidagi fitonimlarda ilmiy-botanik tasnif va lotincha nomenklaturaning ta'siri kuchliroq namoyon bo'ladi. Bu holat har ikki xalqning tarixiy taraqqiyoti, ilmiy an'analari va madaniy

qadriyatlari bilan bog'liqdir. Shuningdek, tadqiqot davomida dorivor fitonimlarning tarjima jarayonidagi xususiyatlari ham tahlil qilindi. O'zbek va fransuz tillarida ayrim dorivor o'simlik nomlari to'liq ekvivalentga ega bo'lsa, ayrimlari esa milliy-madaniy o'ziga xoslik sababli bevosita tarjima qilinmaydi. Bunday hollarda transliteratsiya, transkripsiya, izohli tarjima, funksional ekvivalent yoki ilmiy lotincha nomlardan foydalanish kabi tarjima strategiyalari muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Гак В.Г. Языкове преобразования. Москва, 1998. – С. 56
2. Потебня А.А. Мисл и язык. Москва - 1999. – С. 183
3. Mahmudov N. *Til va madaniyat*. – Toshkent: Ma'naviyat, 2013. 118 b.
4. Pruvost J. *Nos ancêtres les mots*. – Paris: Jean-Claude Gawsewitch, 2011. – P. 154 Hojiyev A. Tilshunoslik terminlarining izohli lug'ati. – Toshkent: O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi, 2002.
5. Pruvost J. *Nos ancêtres les mots*. – Paris: Jean-Claude Gawsewitch, 2011. – 320 p; Rey A.
6. Dictionnaire historique de la langue française. – Paris: Le Robert, 2012.; Guiraud P. *La Sémantique*. – Paris: Presses Universitaires de France, 2010. – 128 p.
7. Begmatov E. O'zbek onomastikasi. – Toshkent: Fan, 2010. – B. 87

